

**MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT ISHTIROKCHISINI MAJBURIY  
TARTIBDA CHIQRISHNING DOLZARB MASALALARI**

**Sherikbayeva Mushtariy Erkin qizi**

O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi

Toshkent Davlat Yuridik universiteti

“Biznes huquqi” kafedrası 4-kurs Xususiy huquq fakulteti talabasi

[erkinovnam97@gmail.com](mailto:erkinovnam97@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11143338>

***Annotatsiya.** Mazkur ilmiy maqolada mas'uliyati cheklangan jamiyatning vujudga kelish tarixi va bunga sabab bo'lgan omillar haqida so'z yuritilgan. Bundan tashqari, MChJ ishtirokchilari huquq va majburiyatlarining klassifikatsiyasi huquqiy tahlil qilingan. Shu bilan birga, ishtirokchini ta'sischi safidan majburiy tartibda chiqarib yuborishga oid amaliyotda vujudga kelayotgan muammolar o'rganilib, rivojlangan davlatlarning xorijiy tajribasi asosida qonunchilikka tatbiq etish uchun huquqiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:** ochiq korporatsiyalar, yopiq korporatsiyalar, gesellschaft mit beschränkter hafting.*

**CURRENT ISSUES OF COMPULSORY EXPULSION OF A PARTICIPANT OF A  
LIMITED LIABILITY COMPANY**

***Abstract.** This scientific article talks about the history of the limited liability company and the factors that caused it. In addition, a legal analysis of the classification of the rights and obligations of the LLC participants was made. At the same time, the problems arising in the practice of mandatory expulsion of the participant from the ranks of the founders were studied, and based on the foreign experience of developed countries, legal proposals were developed for the implementation of the legislation.*

***Keywords:** open corporations, closed corporations, gesellschaft mit beschränkter hafting.*

**АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ПРИНУДИТЕЛЬНОГО ИСКЛЮЧЕНИЯ  
УЧАСТНИКА ОБЩЕСТВА С ОГРАНИЧЕННОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТЬЮ**

***Аннотация.** В данной научной статье рассказывается об истории общества с ограниченной ответственностью и факторах, которые ее обусловили. Кроме того, проведен юридический анализ классификации прав и обязанностей участников ООО. При этом были изучены проблемы, возникающие в практике обязательного исключения*

участника из рядов учредителей, и на основе зарубежного опыта развитых стран разработаны правовые предложения по реализации законодательства.

**Ключевые слова:** открытые корпорации, закрытые корпорации, *Gesellschaft mit beschränkter Haftung*.

Kontinental huquq doktrinasida to‘liq kommandit shirkatlar, cheklangan va qo‘shimcha mas‘uliyatli shirkatlar, kooperativlar, shirkatlar, shuningdek, turli birlashmalar (masalan: konsernlar, assotsiatsiyalar, xoldinglar) kabi xo‘jalik yurituvchi subyektlari korporatsiyalar sifatida tavsiflanadi. N.S. Suvorov korporatsiya atamasiga “o‘zining asosi sifatida jismoniy shaxslar birlashmasi bo‘lgib, irodasi korporatsiyaning barcha a‘zolarining yagona irodasi bo‘lgan yuridik shaxs<sup>1</sup> deb ta‘riflagan. Bundan tashqari, P.V. Stepanov korporatsiyani korporatsiyaning irodasini ifodalovchi boshqaruv organlaridan tashkil topgan va ularning maxsus tuzilmasi bo‘lgan ishtirok etish (a‘zolik) tamoyillariga asoslangan tashkilot deb hisoblaydi<sup>2</sup>. Demak, korporatsiyaning irodasi uning a‘zolarining “individual irodasi” dan farq qiladi, hamda yuridik shaxs sifatida korporatsiya, uning ishtirokchilari tarkibidagi o‘zgarishlardan qat‘i nazar, o‘zgarishsiz qoladi. Bundan tashqari, ishtirokchilar tomonidan korporatsiyaga kiritilgan mulk unga mulk huquqi bilan tegishli bo‘lib, korporatsiya ishtirokchilari korporativ munosabatlarning subyektlari sifatida korporatsiyaning o‘ziga ham, bir-biriga nisbatan ham huquq va majburiyatlarga egadir.

Rus olimasi T.Kashanina korporativ huquqni “Tashkilotda shaxslar va kapital birlashmasi asosida ishlab chiqilgan, uning jamoasi irodasini ifodalovchi va tashkilot faoliyatining turli tomonlarini tartibga soluvchi xulq-atvor qoidalari tizimi” sifatida ko‘radi<sup>3</sup>. Bizning fikrimizcha, korporativ huquq bu – korporativ munosabat subyektlarining huquqlari va majburiyatlarini belgilovchi, korporatsiyaning faoliyati bilan bog‘liq tashqi va ichki ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq normalari yig‘indisi deb ta‘rif berilishi, uning mazmunini ifodalovchi ixcham tushuntirish deb hisoblaymiz.

Korporatsiyalar ochiq va yopiq korporatsiyalarga bo‘linadi, har birining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘liq quyida shu haqida so‘z yuritamiz:

<sup>1</sup> См.: Суворов Н.С. О юридических лицах по римскому праву. М., 2000.

<sup>2</sup> См. особенно: Степанов Д.И. Свобода договора и корпоративное право // Гражданское право и современность: Сборник статей, посвященный памяти М.И. Брагинского / Под ред. В.Н. Литовкина и К.Б. Ярошенко. М., 2015. С. 338 - 339 и с

<sup>3</sup> Кашанина Т.В. Корпоративное право: (Право хозяйственных товариществ и обществ). Учебник. М., 1999. С. 59.

**Ochiq korporatsiyalar:** Ochiq korporatsiyalar, aksiyalari birjalarda keng jamoatchilik tomonidan sotib olinishi va sotilishi uchun mavjud bo'lgan korxonalar<sup>4</sup>. Ushbu korporatsiyalar ko'pincha ko'p sonli aksiyadorlarga ega bo'lib, qattiq tartibga solingan talablarga, shu jumladan moliyaviy ma'lumotlarni oshkor qilish va hisobot berish majburiyatlariga bo'ysunadi. Ochiq korporatsiyalar odatda tarqoq mulkchilik tuzilmasi bilan tavsiflanadi, mulkchilik manfaatlarini keng investorlar bazasiga tegishli.

**Yopiq korporatsiyalar:** Boshqa tomondan, yopiq korporatsiyalar, odatda cheklangan miqdordagi egalik modeli bilan tavsiflanadi. Ushbu korporatsiyalarning aktivlari ochiq sotilmaydi<sup>5</sup> va ularning aksiyalari tanlangan shaxslar guruhiga, ko'pincha ta'assischilarga, oila a'zolariga yoki kichik investorlar guruhiga tegishli.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar modeli yopiq korporatsiya sifatida ushbu biznes tuzilmasini tadbirkorlar uchun majburiy tanlovga aylantiradigan bir qancha muhim xususiyatlarni o'z ichiga oladi. O'z navbatida, cheklangan mas'uliyat yopiq korporatsiya tuzilmasining asosidir. MChJ a'zolarining shaxsiy aktivlarini biznesda yuzaga keladigan majburiyatlardan himoya qiladi<sup>6</sup>. Ushbu xususiyat, tadbirkorlarga shaxsiy tavakkalchilik darajasi past bo'lgan biznes tashabbuslarini amalga oshirish, bozorda innovatsiyalar va investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Operatsion moslashuvchanlikning mavjudligi, qaror qabul qilish jarayonlarini soddalashtirish bilan birga, o'zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashishni osonlashtiradi. Yopiq korporatsiyalarda ishtirokchilar sonini cheklash orqali egalik nazorati va barqarorlik saqlab qolinadi.

Yopiq korporatsiya sifatida mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning rivojlanish tarixi uzoq davrni qamrab oladi. Dastlabki korporatsiyalar, XI – XV asrlarda Evropada savdo gildiyalari va savdo kompaniyalari tijorat faoliyatini samaradorligini oshirish uchun birlashganligi natijasida vujudga kelgan. Mazkur tuzilma yopiq a'zolik hamda aksiyalarning cheklangan savdosi bilan ajralib turgan. Shunday qilib yopiq korporatsiyalarning rivojlanishi bilan birgalikda aksiyalari bozorda ochiq sotiladigan birinchi aksiyadorlik jamiyatlari paydo bo'la boshladi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning yopiq korporatsiya sifatida rivojlanishi XIX – XX asrlargacha aksiyadorlik jamiyatlari bilan parallel ravishda rivojlandi, uning zamonaviy biznes shakliga ega

---

<sup>4</sup>Лукин С.В. Акционерное предпринимательство в России: история и современность. М., 2001. С. 88 - 89

<sup>5</sup>Корпоративное право (отв. ред. И.С. Шиткина) включен в информационный банк согласно публикации - КНОРУС, 2015. С. 15 – 23

<sup>6</sup> Шиткина И.С. Корпоративные формы предпринимательской деятельности // Хозяйство и право. 2015. N 11 (приложение). С. 54 – 56

bo'lishida cheklangan javobgarlik tamoyilining paydo bo'lishi ham muhim omillardan biri bo'ldi.

Adabiyotlarda keltirilishicha, tarixda dastlab payo bo'lgan korporatsiyalardan biri Angliya Sharqiy Hindiston kompaniyasidir. Ron Xarris ta'kidlaganidek, Angliya Sharqiy Hindiston kompaniyasi 1600-yil 31-dekabrda qirollik nizomiga binoan tashkil etilgan<sup>7</sup> va ikki asr davomida Hindiston, Xitoy, Fors va Indoneziya bilan chet el savdosidan katta daromad olgan<sup>8</sup>. Gollandiyaning Sharqiy Hindiston kompaniyasi 1602-yillarda Gollandiya Respublikasida (hozirgi Niderlandiya) ushbu davlatning Hind okeanidagi savdosini himoya qilish va Gollandiyaning Ispaniyadan mustaqillik urushiga yordam berish uchun tashkil etilgan savdo kompaniyasi bo'lgan<sup>9</sup>.

Biznes yuritishning korporativ shaklining keyingi rivojlanishiga asosan ikkita voqea ta'sir ko'rsatdi. Birinchidan, kompaniyalarning ustavlariga aksiyalarni uchinchi shaxslarga berish imkoniyati to'g'risidagi qoida kiritila boshlandi, bu ularning investitsion jozibadorligini oshirdi va obunachilar sonining ko'payishi natijasida kompaniyalar kapitalining sezilarli darajada oshishiga olib keldi.

Aksiyadorlik jamiyatlarini huquqiy tartibga solish maqsadida 1807-yilda Fransiyaning Tijorat kodeksi (Code de commerce) qabul qilingan. Ushbu Kodeksda birinchi marta o'sha vaqtga qadar mavjud bo'lgan, ammo kamdan-kam uchraydigan kompaniyalar tan olingan bo'lib, ular kompaniyaning qarzlari uchun javobgar bo'lmagan aksiyadorlardan iborat edi. O'z navbatida, bu qoidalar aksiyadorlarning korporatsiya majburiyatlari yuzasidan cheklangan javobgarlik amaliyoti rivojlanishga turtki bo'ldi. Rivojlangan mamlakatlarda aksiyadorlik jamiyati ishtirokchilarining uning qarzlari uchun javobgarligi cheklanganligi tamoyili bosqichma-bosqich o'rnatilgan.

Angliya korporativ huquqining rivojlanishining o'ziga xos xususiyati shundaki, XX asr boshlariga kelib, asosan qonunlar emas, balki ingliz sudlari "korporativ huquq normalarining izchil va keng qamrovli tizimini" yaratdilar<sup>10</sup> Buyuk Britaniyada cheklangan javobgarlik prinsipi Lordlar palatasining 1897-yildagi Salomon ishi (Salomon Co Ltd corporation) orqali korporatsiyaning yuridik shaxsini tan olishda hal qiluvchi ro'l o'ynagan. Sud qaroriga ko'ra,

---

<sup>7</sup> Partnership Act 1890, s 1.

<sup>8</sup> <https://yalebooks.yale.edu/2015/08/11/the-worlds-first-corporations/>.

<sup>9</sup> <https://www.history.com/news/east-india-company-england-trade>.

<sup>10</sup> Ron. Harris. A new understanding of the history of limited liability: an invitation for theoretical reframing. Published online by Cambridge University Press. 2020. <https://www.cambridge.org/core/journals/journal-of-institutional-economics/article/new-understanding-of-the-history-of-limited-liability-an-invitation-for-theoretical-reframing/B12B69696AC81304A2738ADE4FFF4556>.

fuqaro uning yagona aktsiyadori va boshqaruvchisi bo'lishiga qaramay, to'lovga layoqatsiz kompaniyaning qarzlari bo'yicha javobgarlikka tortilmagan. Ularning har biri o'z majburiyatlari bo'yicha mustaqil javobgar bo'lishini nazarda tutuvchi tamoyil shakllandi. Bu tamoyil keyinchalik sud amaliyotida keng qo'llanila boshlandi.

Korporativ huquq tarixi uchun muhim voqea 1892-yilda Germaniyada mas'uliyati cheklangan jamiyat (Gesellschaft mit beschränkter Haftung - GmbH) kabi tadbirkorlik faoliyati tashkiliy-huquqiy shaklining paydo bo'lishi bo'ldi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning yopiq korporatsiya sifatidagi kontsepsiyasi cheklangan javobgarlikni himoya qilish va boshqaruvning moslashuvchan tartibini taklif qiladigan samarali tadbirkorlik subyektiga bo'lgan ehtiyojga javob sifatida paydo bo'ldi<sup>11</sup>. An'anaviy korporatsiya va sheriklik tuzilmalaridan farq qilgan holda MChJ ishtirokchilarning cheklangan javobgarligi, qulay soliqqa tortish usuli, boshqaruvning yangicha yondashuvini hamda kam sonli egalarni joylashtirish mumkin bo'lgan biznes shaklini taklif etdi.

### **Mas'uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchilari huquqlarining tasnifi (klassifikatsiyasi)**

Huquqiy adabiyotlarda ishtirokchi huquqlari asosan uch guruhga ajratib o'rganilgan bo'lib, ishtirokchilarning huquqlari mulkiy, nomulkiy va qo'shimcha huquqlardan iborat quyida shu haqida so'z yuritimiz.

**Mukiy huquqlar** – bu jamiyat ishtirokchisining jamiyat ustav fondidagi ulushga ega bo'lishi, daromadlardan belgilangan miqdorda foyda olish, jamiyat faoliyatiga doir masalalarni hal etishda ishtirok etish kabi huquqlarni va boshqalarni o'z ichiga oladi. Ushbu huquqlar ishtirokchining jamiyat faoliyatidagi manfaatlarini himoya qilish va uni ushbu faoliyatda ishtiroki uchun kafolatlar beradi.

Huquqiy adabiyotlarda, ishtirokchilarning huquqlari uning mazmuniga ko'ra, tasniflab o'rganilgan bo'lib, jumladan, D.Lomakin, ishtirokchining mulkiy huquqlarini ikki guruhga ajratadi bular: - korporasiyaning xo'jalik faoliyatida ishtirok etish bilan bog'liq huquqlar hamda korporasiyani tugatish jarayonida ishtirok etish bilan bog'liq huquqlar<sup>12</sup>. Shuningdek, L.R.Yuldashbaeva hamda K.L. Nor-Arevyanlar<sup>13</sup> ishtirokchilarning huquqlarini mulkiy

<sup>11</sup> [Delina Chantel Yasmeh](https://venturesmarter.com/when-did-llc-start/) and [Lou Viveros](#), Growth & Transition Advisor. 2024. Article. When did LCC start? (Complete history guide). <https://venturesmarter.com/when-did-llc-start/>.

<sup>12</sup> Д.В.Ломакин. Корпоративные правоотношения как составная часть системы гражданско-правовых отношений: на примере хозяйственных обществ. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора юридических наук. Москва – 2009., стр.362, 363.

<sup>13</sup> Юлдашбаева Л.Р. Правовое регулирование оборота эмиссионных ценных бумаг (акций, облигаций). М., 1999. С.20-29; Нор-Аревян К.Л. Основные права акционеров и их гражданско-правовая защита: Автореф. дисс...к.ю.н. Ростов-на-Дону. 2007. С. 4.

huquqlar sifatida tavsiflaydilar buni, ishtirokchining maqsadi foyda olishga qaratilganligi bilan izohlashadi. Shu bilan birga, T.Appakova ishtirokchining barcha huquqlarini mulkiy huquqlar hisoblanishini ta'kidlaydi. Bizning fikrimizcha ushbu ta'rif to'g'ri bo'lmaydi chunki, kompaniya nomini o'zgartirish huquqini va boshqa shunga o'xshash huquqlar mulkiy huquq hisoblanmaydi. Shuningdek, mulkiy huquq xuddi mulkiy talab va mulkiy xususiyatdagi da'volar singari muayyan qiymatga ega bo'lishi, baholanishi kerak. Shu o'rinda, E.Lavyagina mulkiy huquqlar – subyektiv fuqarolik huquqlari bo'lib, uning obyekti mulk hisoblanishi va ular shaxsning jamiyat faoliyatidagi moddiy ishtirokida vositachilik qilishini ta'kidlaydi<sup>14</sup>. Bizning fikrimizcha ishtirokchilarning huquqlarini mazmuniga ko'ra uch guruhga mulkiy, nomulkiy va tashkiliy boshqaruv huquqlariga bo'lib o'rganish ularning mazmun mohiyatini to'liq ochib berishga yordam beradi.

**Nomulkiy huquqlar** – bu ishtirokchining jamiyatda nomulkiy ishtiroki vositasi hisoblanadi. D.Lomakin ta'kidlaganidek, nomulkiy huquqlar o'z mohiyatiga ko'ra, ishtirokchining korporasiya faoliyatida nomulkiy ishtirokini belgilasa-da, asosan uning mulkiy huquqlarini amalga oshirish vositasi bo'lib xizmat qiladi<sup>15</sup>. I.Shitkina ishtirokchining korporativ huquqi tushunchasiga, korporasiyaga a'zolikdan kelib chiqadigan ishtirokchining tashkiliy-boshqaruv va mulkiy huquqlari jamlanmasi deb ta'rif bergan<sup>16</sup>. Bundan tashqari, ishtirokchilarning huquqlari ilmiy adabiyotlarda asosiy va qo'shimcha huquqlarga ajratilgan.

**Asosiy huquqlar** – bu “Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida”gi Qonunda mustahkamlangan kompaniya ishtirokchilarining huquqlari hisoblanadi. O'z navbatida, asosiy huquqlar ikki guruhga bo'lingan. “Asosiy shartsiz” huquqlar - bu majburiy xarakterga ega bo'lib, jamiyat ishtirokchilari yoki boshqaruv organlarining o'zlari tomonidan chiqarib tashlanishi yoki cheklanishi mumkin bo'lmagan huquqlar hisoblanadi. Ikkinchisi “asosiy shartli” huquqlar - bu vujudga kelishi ma'lum shartlarning mavjudligi bilan bog'liq bo'lgan huquqlardir.

Mas'uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchilarining “**asosiy shartli**” huquqlariga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

- ❖ navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni talab qilish huquqi;
- ❖ ishtirokchini ishtirokchilar safidan chiqarib yuborishni talab qilish huquqi;

---

<sup>14</sup>. Лавягина Е.А. Общества с ограниченной ответственностью.- М.: Приор, 1999.-е. 68.

<sup>15</sup> Д.В.Ломакин. Корпоративные правоотношения как составная часть системы гражданско-правовых отношений: на примере хозяйственных обществ. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора юридических наук. Москва – 2009., стр. 363

<sup>16</sup>. И.Шиткина Корпоративное право. М., 2017. С. 365.

❖ jamiyatdan chiqish yoki qonunda nazarda tutilgan hollarda jamiyatdan ulushni sotib olishni talab qilish huquqi;

❖ ulushni ustavda taqiqlanmagan bo'lsa, garovga qo'yish huquqi.

Mas'uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchilarining **“asosiy shartsiz”** huquqlariga quyidagilar kiradi:

❖ umumiy yig'ilishining kun tartibiga takliflar hamda boshqaruv organlariga saylash uchun nomzodlar bo'yicha takliflar kiritish;

❖ umumiy yig'ilishida qatnashish va qarorlar qabul qilishda ovoz berish.

**Qo'shimcha huquqlar** – bu jamiyat ishtirokchilari asosiy huquqlaridan tashqari jamiyat ustavida nazarda tutilishi mumkin bo'lgan huquqlardir. Qo'shimcha huquqlar ta'sis hujjatlarida aniq ko'rsatib berilgan bo'lishi va aynan qaysi ishtirokchi(lar)ga tegishli ekanligi aniq belgilanishi lozim. Shu bilan birga, qo'shimcha huquq, universal huquqiy vorislik asosida boshqa shaxsga o'tkazilishiga yo'l qo'yilmasligini ta'kidlash zarur. Ya'ni, jamiyat ishtirokchisida bo'lgan qo'shimcha huquq, agar uning ulushi begonalashtirilsa, bunday huquq ulushni olgan shaxsga o'tmaydi. Ishtirokchining qonun bilan kafolatlangan huquqlaridan farqli ravishda, ishtirokchiga berilgan qo'shimcha huquqlar bir ovozdan qabul qilingan umumiy yig'ilish qarori bilan tugatilishi yoki cheklanishi mumkin. Jamiyat tashkil etilishida qo'shimcha huquqlar ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan bo'ladi. Ishtirokchiga u yoki bu qo'shimcha huquqning berilishi, uning majburiyatlari oshishiga yoki qo'shimcha majburiyatlarining vujudga kelishi sabab bo'lmaydi.

### **Ishtirokchilar huquqlarining vujudga kelishi, boshqa shaxslarga o'tishi va tugashi**

Qonunda ishtirokchining huquqlari qachon vujudga kelishi borasida aniq norma mavjud emasligi sababli bu borada turli xil mulohazalar mavjud. Bazi olimlar, ishtirokchilarning korporativ huquqlarini jamiyatning ta'sis hujjatlari bilan bo'g'liq ekanligini ta'kidlashadi, boshqalar bunday huquqlar ta'sis hujjatlari imzolangan vaqtdan boshlab vujudga kelishini ilgari surishadi (izoh: sud amaliyoti ishtirokchilarning huquqlari jamiyat ta'sis hujjatlari imzolangan vaqtdan boshlab vujudga kelishini inkor etadi), bazi olimlar huquqning vujudga kelishini ta'sis hujjatlarini davlat ro'yxatidan o'tkazilgan vaqtga havola etishadi. Ushbu holatda huquqshunos

olim R.Bevezenko korporasiyaga a'zolik yuridik shaxs davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab vujudga kelishi g'oyasini ilgari suradi<sup>17</sup>.

Ta'kidlash joizki, jamiyat qonunchilikda belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran fuqarolik huquqiy munosabatning alohida subyekti sifatida vujudga keladi va yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi. Ta'xis shartnomasida jamiyat muassislarining tarkibi, ularning birgalikdagi faoliyati, ustavida ishtirokchilarining huquqlari va majburiyatlari nazarda tutilgan bo'ladi. Biroq, jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgunga qadar bu huquq va majburiyatlar shartli bo'lib, jamiyatni tashkil etilmas ekan bu huquq va majburiyatlarni amalga oshirish imkoniyati mavjud bo'lmaydi va ushbu holatda birdan bir shart bu – huquqlarning obyekt bo'lgan jamiyatning tashkil etilishi hisoblanadi. Ishtirokchilarning huquqlari qachondan boshlab vujudga kelishi masalasida sudda ko'rilgan ishlar tahlili, shuni ko'rsatmoqdaki, bunday nizolarni hal etishda sudlar O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy proessual kodeksining 37-moddasida belgilangan qoidadan kelib chiqib, to'xtamga kelishmoqda. E'tiborli jihati shundaki, mazkur norma ishtirokchilarning huquqlari bo'yicha nizolarni hal etish tartibini belgilamasa-da, sudlovga tegishlilik masalasini tartibga soluvchi ushbu normada korporativ nizolarning yuridik shaxs joylashgan yerdagi sudda ko'rib chiqilishi belgilangan. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda sudda yuridik shaxs davlat ro'yxatidan o'tkazilmagunga qadar korporativ nizo bo'lishi mumkin emasligi amaliyoti shakllangan. M.Saidov ta'kidlaganidek, har qanday korporativ nizoning negizida korporativ munosabatlar turganligidan kelib chiqib, korporativ munosabatning obyekt va subyekti bo'lmas ekan, uning subyekti hisoblangan jamiyat ishtirokchisining huquqlari ham bo'lishi mumkin emas<sup>18</sup>.

Yuqoridagilardan kelib chiqib ishtirokchisining huquqi qachonki jamiyat tashkil etilib, ta'xis hujjatlari ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan e'tiboran ishtirokchining maqomi belgilandan keyin vujudga keladi degan qat'iy fikrga kelamiz.

Bir guruh tadqiqotchilar ishtirokchilarning huquqlarini jamiyat ustav fondidagi (kapitalidagi) ulushiga uzviy bog'liqligini ta'kidlashadi. Ushbu qarashning qat'iy tarafdori, rus olimi D.Stepanovning fikriga ko'ra, aksiya va ulushga nisbatan huquqlarining vujudga kelishi yohud tugatilish vaqti bilan aksiyador va ishtirokchi huquqlarining paydo bo'lishi yoki tugatilishi

---

<sup>17</sup> Основные положения гражданского права : постатейный комментарий к статьям 1–16.1 Гражданского кодекса Российской Федерации [Электронное издание. Редакция 1.0] / А. В. Асосков, В. В. Байбак, Р. С. Бевзенко [и др.] ; отв. ред. А. Г. Карапетов. – Москва : М-Логос, 2020. ст. 540.

<sup>18</sup> M.Saidov. Mas'uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchilarining huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish masalalari dissertatsiya. 2022.

yuz beradi<sup>19</sup>. Biroq, olimning bunday to'xtamga kelishida muayyan holatlar inobatga olinmaganligini ko'rish mumkin. Misol uchun, jamiyatdan chiqib ketgan ishtirokchining ulushi jamiyatga o'tgandan keyin ham chiqib ketgan ishtirokchining jamiyatdan pul mablag'ini talab qilish yoki uning chiqib ketishi bilan bog'liq bo'lgan umumiy yig'ilish qarorlarini ustidan shikoyat qilish huquqlari saqlanib qolishini inobatga olish lozim. Bundan tashqari, aksiyadan farqli ravishda ulush qimmatli qog'oz hisoblanmaydi, shu bois, ushbu tushunchalarga nisbatan bir xil huquq normalarni tatbiq etib bo'lmaydi.

Rossiya Federasiyasi Oliy arbitraj sudi Rayosatining 2014-yil 15-iyuldagi 3640/14-sonli qarorida mas'uliyati cheklangan jamiyatidagi ulush ashyo emas, balki jamiyat ishtirokchisining muayyan mulkiy va nomulkiy huquqlari va majburiyatlarining majmui bo'lib, fuqarolik huquqlari obyektlarining guruhiga kiradigan boshqa mol-mulk deb tushuntirish berilganligi ahamiyatga molik. Ulush tushunchasiga berilgan ushbu ta'rifda, ulush haqiqatan ham ishtirokchining huquqlarini amalga oshirish asosi hisoblanishini anglash mumkin.

Ishtirokchi ulushlarining haq evaziga bir shaxsdan boshqa shaxsga o'tishi, Qonunda "ulushni sotish" termini bilan kelgan bo'lib, bazi huquqiy adabiyotlarda ustav kapitalidagi ulushni to'liq yoki bir qismini boshqa shaxsga o'tkazish bu aslida biron-bir ashyoni oldi-sotdi qilishni emas balki, balki huquqdan voz kechish deb baholanadi<sup>20</sup>. Ushbu yondashuvga binoan, bunday usulda ulushni sotish rim huquqida "sessiya" deb yuritilgan bo'lib, mazkur munosabatlar Fuqarolik kodeksining 313-321-moddalari bilan tartibga solinadi.

O'z navbatida, ulushni haq evaziga boshqa shaxsga o'tkazilishiga nisbatan FKning 313-moddasini qo'llash biroz to'g'ri kelmaydi. Fikrimizni tasdig'i sifatida quyidagi mulohazalarni keltiramiz:

- ❖ birinchidan, ushbu munosabat majburiyat huquqi emas, balki korporativ huquq bilan tartibga solinadi;
- ❖ ikkinchidan, ushbu norma majburiyatdagi shaxslarning o'zgarishiga qaratilgan bo'lib, kreditor huquqlarini boshqa shaxsga o'tkazilishini tartibga solishga qaratilgan;
- ❖ uchinchidan, ushbu normani obyekt qarz bo'lib, qarz bo'lmasa, undan talabni boshqa shaxs foydasiga voz kechib bo'lmaydi;
- ❖ to'rtinchidan, ustav kapitalidagi ulushni boshqa bir shaxsga berishga qaratilgan bitim ishtirokchining nafaqat huquqlari balki majburiyatlarini ham o'tkazilishiga olib keladi.

---

<sup>19</sup>.Реформа законодательства об ООО: к принципу свободы договора в корпоративном праве: В 2 ч. // Корпоративный юрист. 2009. N 7. Ч. 2. С. 4 - 11.

<sup>20</sup> <https://xreferat.com/22/14281-5-obshestvo-s-ogranichennoiy-otvetstvennost-yu-i-ego-pravovoiy-status.html>.

Xulosa o‘rnida, ulushni haq evaziga begonalashtirish bilan bog‘liq munosabatlarga (bitimlarga) nisbatan FKning 23-bobini tadbiiq etib bo‘lmaydi deb hisoblaymiz. Bu borada, Ustav kapitalidagi ulushni boshqa bir shaxsga berish bo‘yicha munosabatlarni tartibga solishda talab qilish huquqini, qarzni o‘tkazish munosabatlariga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy tuzulmalardan agarda ushbu munosabatlarda ikkita holat, huquq va majburiyatlarning o‘tkazilishida o‘xshashlik jihati bo‘lsa, foydalanish mumkin, – deb xulosa qiladi L.Novoselova<sup>21</sup>. Ulushni yoki uning bir qismini sotish aslida haq evaziga o‘z huquqdan voz kechish hisoblanadi va unga nisbatan FK 386-moddasining beshinchi qismiga ko‘ra, ashyoni oldi-sotdi to‘g‘risidagi qoidalar tadbiiq etilishi mumkin. E‘tiborli jihati shundaki, “ulushni sotish” bu bir “mahsulotni sotish”dan farq qiladi.

Jumladan, oldi-sotdi shartnomasining predmeti “ashyo”dan farqli ravishda ulushni sotish shartnomasining predmeti “ulush” emas, balki “ulushga bo‘lgan huquq” hisoblanadi. Jamiyat ustav kapitalini tarkibiy qismi hisolanadigan ulush, o‘sha jamiyatniki bo‘lib qolaveradi, faqatgina ulushga nisbatan huquq bir shaxsdan boshqa shaxsga o‘tkazilishi yuz beradi. Shunigdek, jamiyat ishtirokchisining korporativ huquqlari davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi, ishtirokchi maqomini vujudga kelishiga asos hisoblanib, biroq, bu mulkka nisbatan egalik huquqi belgilanishini anglatmaydi. Ulushni sotib olgan shaxs, ulush bilan birgalikda korporativ majburiyatlarni ham oladi. Ma‘lumki, agar ta‘sis hujjatlarida boshqa tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, ishtirokchining jamiyat faoliyatidagi o‘rni ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushining miqdoriga bog‘liq bo‘ladi.

Ta‘kidlash joizki, ulushga nisbatan huquqning bir shaxsdan boshqasiga o‘tishi (haq evaziga yoki tekinga), bir taraflama bitim asosida, universal (umumiy) yoki xususiy (singulyar) vorislik asosida, shuningdek, qonunda nazarda tutilgan boshqa asoslarda o‘tkazilishi mumkin. Bu borada S.Mogilevskiy ulushning (bir qismini) o‘tish jarayonlari murakkab va zarur mexanizmlardan tarkib topgan bo‘lib, bu mas‘uliyati cheklangan jamiyatning o‘ziga hosligini bildiradi<sup>22</sup>.

Ishtirokchining huquqlaridan foydalanish jamiyat bilan bevosita (ishtirokchi) yoki bilvosita (ishtirokchi maqomini olmagan, biroq jamiyatdagi ulushga huquqi bo‘lgan shaxs) bog‘liq bo‘lgan shaxslarga berilgan. Shunday holatlar bo‘ladiki ishtirokchilarning huquqlari

---

<sup>21</sup> Новоселова Л.А. Оборотоспособность доли в уставном капитале общества с ограниченной ответственностью // Объекты гражданского оборота: Сб. статей / Отв. ред. М.А. Рожкова. М., 2007. С. 197 - 230.

<sup>22</sup> С.Д.Могилевский, И.А.Самойлов.Корпорации в России: Правовой статус и основы деятельности. Учебное пособие. Дело-2006.

jamiyat bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan shaxslar qo‘liga o‘tib qoladi. Bunday holatni jamiyatning vafot etgan ishtirokchisini ulushga nisbatan meros masalasi hal etilgunga qadar bo‘lgan davrda hamda jamiyatga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilgan hollarda kuzatish mumkin.

Xususan, jamiyatning vafot etgan ishtirokchisining meros masalasi hal etilgunga qadar uning huquqlari vasiyatnomada ko‘rsatilgan shaxs va notarius tayinlagan boshqaruvchi tomonidan amalga oshiriladi. “To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida”gi Qonunda jamiyatga nisbatan bankrotlik ishi qo‘zg‘atilgan taqdirda bankrotlik ishi doirasida, kreditorlar yig‘ilishida yoki kreditorlar qo‘mitasida qarzdor jamiyat ishtirokchilarining shaxsan ishtiroki nazarda tutilmagan. Jamiyatning to‘lovga qobiliyatsizligi jarayonida ishtirokchilar nomidan faqatgina vakil qatnashishi mumkinligi va ishtirokchilarning huquqlarini amalga oshirishi belgilangan.

### **Mas’uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchilari majburiyatlarining yuridik tabiati**

Mas’uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchilarining majburiyatlari haqida so‘z yuritganimizda, biz jamiyat ishtirokchilari tomonidan qat’iy bajarilishi kerak bo‘lgan muayyan harakatlar majmuasini nazarda tutamiz.

Shuningdek, “Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi Qonunda to‘g‘ridan - to‘g‘ri ishtirokchilarining faqat ikkita umumiy majburiyatlari mustahkamlangan bo‘lib, bular: jamiyat ustav fondiga o‘z hissalarini qo‘shish va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq maxfiy ma’lumotlarni oshkor qilmaslikdir. Mazkur Qonunning 9 - moddasida belgilanishicha, jamiyat ustavida qonunda nazarda tutilgan majburiyatlardan tashqari jamiyat ishtirokchilarining boshqa majburiyatlari yani qo‘shimcha majburiyatlari ham nazarda tutilishi mumkin. Qonunda nazarda tutilgan majburiyatlar asosiy majburiyatlar hisoblanadi. Shu o‘rinda asosiy majburiyatlar o‘zlarining ichki tasniflariga ega va ikki guruhga bo‘linadi: “asosiy shartsiz” majburiyatlar va “asosiy shartli” majburiyatlar.

Asosiy shartsiz majburiyatlar. Bunda, majburiy xarakteriga ega bo‘lgan va undan ishtirokchilarning o‘zlari yoki jamiyatning boshqaruv organlari yoki jamiyat ustavi tomonidan ozod qilinishi mumkin bo‘lmagan majburiyatlar tushuniladi.

Mas’uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchilarining “asosiy shartsiz” majburiyatlariga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

- ❖ jamiyatning ustav fondidagi ulushlarni “Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi Qonunda va jamiyatni ta’sis etish to‘g‘risida shartnomada nazarda tutilgan tartibda, miqdorlarda, usullarda va muddatlarda to‘lash majburiyati;
- ❖ kompaniya faoliyatiga oid maxfiy ma’lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyati;

❖ ishtirokchilar kompaniya faoliyatiga zarur bo'lgan hollarda o'zlari haqidagi ma'lumotlarni, shuningdek kompaniyaning ustav kapitalidagi ulushlarining o'zgarganligi to'g'risidagi ma'lumotlar haqida kompaniyani o'z vaqtida xabardor qilish majburiyati.

Asosiy shartli majburiyatlar. Qonunning o'zi tomonidan belgilanadigan majburiyatlardir, ammo bu majburiyatlarni jamiyat ishtirokchilariga yuklash va shunga mos ravishda ularni bajarish zarurati faqat ushbu majburiyatlarni belgilovchi qoidalarda nazarda tutilgan taqdirdagina yuzaga keladi. Mazkur majburiyatlar Qonun bilan yohud ma'lum bir jamiyatning ustavi bilan belgilanadi va ushbu jamiyat a'zolariga nisbatan qo'llaniladi. Asosiy shartli majburiyatlarga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

❖ agar ishtirokchi o'z ulushini (ulushning bir qismini) jamiyatga yohud jamiyatning boshqa ishtirokchilariga shuningdek, uchinchi shaxslarga sotishga, boshqacha usulda begonalashtirishga qaror qilsa, bunda o'z mablag'lari hisobidan jamiyat mazkur shaxslarga murojaat yuborish orqali ishtirokchilarni va jamiyatni yozma ravishda xabardor qilish majburiyati;

❖ umumiy yig'ilish tomonidan jamiyat ustav fondini ishtirokchilarning qo'shimcha hissalarini evaziga ko'paytirish to'g'risida qaror qabul qilinsa, tegishli miqdorda hissa kiritish majburiyati;

❖ jamiyat faoliyatiga to'sqinlik qiluvchi va boshqa ishtirokchilarning manfaatlariga zarar yetazuvchi harakatlarni sodir etmaslik majburiyati.

Mas'uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchisining asosiy majburiyatlari bu kompaniya faoliyati to'g'risidagi maxfiy ma'lumotlarni oshkor etmaslikdir. Oshkor qilmaslikni talab qilish huquqi faqat jamiyatning o'ziga tegishli bo'lishi mumkin, chunki faqatgina axborot egasi axborotdan foydalanishni cheklash huquqiga ega. Shu bilan birga, xo'jalik shirkatlari ishtirokchilarining huquqlari hamda majburiyatlari xo'jalik shirkati yoki jamiyatining ta'sis hujjatlari bilan kengaytirilishi mumkin. A.V.Egorovning ta'kidlashicha, korporativ munosabatlar nemis huquqida "boshqa bir shaxsning tadbirkorlik faoliyatini yuritish" (Geschäftsbesorgung) tushunchasi bilan izohlanadi, yani bu boshqa shaxsning manfaati uchun amalga oshiriladigan iqtisodiy turdagi har qanday mustaqil faoliyatni anglatadi<sup>23</sup>. A.V. Egorovning fikriga ko'ra, ishonch bildirilgan shaxs boshqa shaxsning manfaatlarini uning mulkini boshqarish, sudda

---

<sup>23</sup>. Palandt. Kommentar zum Bürgerlichen Gesetzbuch. München, 2000. S. 797 (цит. по: Егоров А.В. Агентский договор: опыт сравнительного анализа законодательных и теоретических конструкций // Ежегодник сравнительного правоведения. М.: Норма, 2002. С. 122).

manfaatlarini himoya qilish orqali himoya qilish bilan bog‘liq majburiyatlarni oladi<sup>24</sup>. Shu bilan birga, u agentlik shartnomasi asosida biznes egasi va agent o‘rtasidagi munosabatlar ishonchga asoslanishini ta’kidlaydi. Agent o‘z manfaatlarini korxonaga va boshqa ishtirokchilar manfaatlaridan ustun qo‘yishi mumkin emas. Shu bilan birga, agentning mulkdorga (Treuepflicht)ga sodiq qolish majburiyati mavjud bo‘lib, bu uning ko‘rsatmalariga rioya qilish, maxfiylikni saqlash, ishonib topshirilgan mulkni saqlash va jamiyat bilan raqobatlashmaslik bo‘yicha aniq majburiyatlarda namoyon bo‘ladi. Sheriklik shartnomasi ishtirokchilaridan birining harakatlari natijasida yuzaga kelgan natija hamma uchun oqibatlar ketirib chiqarishini ifodalaydi. Bunda sheriklar munosabatlar ishonchli xarakterga ega bo‘lib, shuning uchun, sheriklarning har biri umumiy mulk bilan vijdonan va ishonchli muomala qilishlari shart. Ushbu holatda, ishtirokchi jamiyat oldida sodiqlik burchiga ega va u o‘z manfaatlarini nazorat qilish orqali jamiyatga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan xatti-harakatlardan, hatto shaxsiy manfaatlarini ko‘zlagan bo‘lsa ham (masalan, o‘zi ishtirokchi bo‘lgan jamiyat bilan raqobatga kirishmaslik) saqlanishi shart. Afsuski “jamiyat manfaatlari” nima ekanligini aniqlash ma’lum qiyinchiliklarga sabab bo‘ladi, lekin bu tushuncha jamiyat faoliyatining davom etishi va rivojlanishini aniq qamrab oladi.

Germaniya qonunchiligida ishtirokchilarning xatti-harakatlarini tartibga solishning ishlab chiqilgan vositalaridan biri, ishtirokchilarni jamiyat va boshqa ishtirokchilarga nisbatan sodiqlik burchi subyektlari sifatida tan olishdir. Buyuk Britaniya qonunchiligida ishtirokchilarga nohaq tajovuzdan himoya qilish vositasi ishlab chiqilgan, bu ham ishtirokchi jamiyatdagi ustunligidan foydalanib, boshqa ishtirokchilarning qonuniy manfaatlarini buzish huquqiga ega emasligini anglatadi<sup>25</sup>, Shveytsariyaning “Majburiyatlar to‘g‘risida”gi Qonunining 803–moddasiga<sup>26</sup> asosan ishtirokchilar jamiyat manfaatlariga zarar etkazadigan har qanday narsadan voz kechishga majburdirlar.

---

<sup>24</sup> «Обязанность давать сведения, представить отчет и выдать все полученное лежит на всяком, кто ведет чужое дело, т.е. дело, относящееся к чужой имущественной сфере», – писал Л.С. Таль (см.: Таль Л.С. Договор доверенности или поручения в проекте Гражданского Уложения. СПб., 1911 С. 12).

<sup>25</sup> Cahn A., Donald D.C. Comparative company law: text and cases on the laws governing corporations in Germany, the UK and the USA. Cambridge University Press, 2010. P. 576.

<sup>26</sup> Cahn A., Donald D.C. Comparative company law: text and cases on the laws governing corporations in Germany, the UK and the USA. Cambridge University Press, 2010. P. 576. 2 g corporations in Germany, the UK and the USA. Cambridge University Press, 2010. P. 576. 2 Здесь и далее ссылки на текст Швейцарского обязательственного закона приводятся по следующему изданию: Швейцарский обязательственный закон. Федеральный закон о дополнении Швейцарского гражданского кодекса (часть пятая: Обязательственный закон) от 30 марта 1911 г. (по состоянию на 1 марта 2012 г.) / пер. с нем., фр. Н.И. Гайдаенко-Шер, М. Шер. М.: Инфотропик Медиа, 2012.

Bizning fikrimizcha, ishtirokchilar tomonidan jamiyat manfaatlarini ko'zlab ish yuritish majburiyatini buzish, ushbu munosabatlarni majburiy tugatish uchun asos bo'lishi mumkin.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, biz kichik xulosa chiqarishimiz mumkin: jamiyat ishtirokchisini majburiy tartibda chiqarish – bu ishtirokchining jamiyat manfaatlarini ko'zlab harakat qilish majburiyatini buzganlik uchun sanksiya hisoblanadi.

**Mas'uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchisini majburiy tartibda ta'sischi-  
safidan chiqarish bilan bog'liq nizolarning oldini olish hamda amaldagi qonunchilikni  
takomillashtirish istiqbollari**

Har qanday uzoq muddatli qo'shma faoliyatda albatta uning ishtirokchilari o'rtasida korporativ nizolar yuzaga keladi. Korporativ nizolar masalasi odatda umumiy yig'ilish qarorlari va kompaniya tomonidan tuzilgan bitimlariga e'tiroz bildirish orqali ularni haqiqiy emas deb topish va jamiyat hisobiga direktorlar tomonidan yetkazilgan zararni undirish kabi choralarni muhokama qilishdan iborat. Biroq, bular korporativ nizolarning hal etilishida yetarli vosita emas.

Jumladan, jamiyat ishtirokchilarini ta'sischi- safidan majburiy tartibda chiqarib yuborishga oid korporativ nizolarga to'g'ri yechim berish uchun, amaldagi "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonun normalarida yetarli asos va mezonlar ishlab chiqilmagan bo'lib, natijada sudlar tomonidan mazkur nizolarni ko'rib chiqishda mavhum hal qiluv qarorlari qabul qilinishiga olib kelmoqda. Bu esa, ishtirokchilarning umumiy manfaatlariga va kompaniya faoliyatining rivojiga sezilarli darajada salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Zero, har bir ijtimoiy munosabatlarni qonun yo'l bilan aniq normalar asosida tartibga solmaslik ijtimoiy munosabatlarning barqaror rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi va huquqiy munosabat subyektlari o'rtasida tartibsizliklarni keltirib chiqaradi. Buning oldini olish uchun xorijiy tajribani inobatga olgan holda qonunchilikni takomillashtirish kerak.

Shu maqsadda, Biz, qonunchilikda mavjud bo'lgan bo'shliqlar sababli sud amaliyotida yuzaga kelayotgan bazi nizolarga quyida yechim berishga harakat qilamiz.

I. Xususan, "Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida"gi Qonun loyihasining 9-moddasiga asosan ishtirokchilar majburiyatlari doirasi kengaytirilib quyidagi qoidalar kiritildi:

Jamiyat ishtirokchisi:

- 1) o'ziga oid ma'lumotlardagi o'zgarishlar haqida jamiyatni xabardor qilish;
- 2) jamiyat faoliyati to'g'risidagi sir tutilgan axborotni oshkor etmasligi shart.

Yuqoridagi holatda ishtirokchi tomonidan o'ziga oid ma'lumotlarning o'zgarishi haqida jamiyatni xabardor qilish majburiyati o'z navbatida kompaniya boshqaruviga oid masalalar

yuzasidan u bilan to'sqinliksiz bog'lanish imkoniyatini ta'minlash uchun zarur. Ushbu majburiyatning ahamiyati shundaki, ishtirokchilar umumiy yig'ilishi haqida xabardor qilinishi uchun, jamiyatda uning aniq manzillari bo'lishi kerak. Ishtirokchini umumiy yig'ilishda ishtirok etmaganligi bois ta'sislar safidan chiqarib yuborish nizolari sudda ko'rilayotganida, ishtirokchi o'z manzili o'zgarganli yuzasidan uning umumiy yig'ilishda qatnashmaganli ko'pincha munozarali holat hisoblanib, uning xatti-harakatlari oqlanishi holatlari kuzatiladi. Bunda, qolgan ishtirokchilar va jamiyat manfaatlariga yetkazilgan salbiy ta'sirlar baholanmaydi. Mazkur vaziyatda, albatta ishtirokchi aybdor bo'lib, shu kabi nizolarning oldini olish uchun, mazkur normaga quyidagicha qo'shimcha kiritilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

9-modda. Jamiyat ishtirokchilarining majburiyatlari.

Jamiyat ishtirokchisi: o'ziga oid ma'lumotlardagi o'zgarishlar haqida jamiyatni xabardor qilishi shart, xabardor qilmaslik natijasida kelib chiqqan salbiy oqibatlar uning zimmasida bo'ladi.

Shunga o'xshash qoida "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 42-moddasida belgilangan unga ko'ra, aksiyador o'ziga oid ma'lumotlardagi o'zgarishlar haqida Markaziy depozitariyni investitsiya vositachisini o'z vaqtida xabardor qilishi shart. Aksiyador o'ziga oid ma'lumotlar o'zgarganligi haqidagi axborotni taqdim etmagan hollarda, Markaziy depozitariy va investitsiya vositachisi buning oqibatida aksiyadorga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'lmaydi.

Bizning fikrimizcha, yuqoridagi normaning huddi shu mazmunda talqin etilishi, ishtirokchilar tomonidan mazkur majburiyatning to'liq bajarilishini, kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarning oldini olinishini hamda sudlar tomonidan nizolarni adolatli hal etilishini taminlaydi va ushbu majburiyatning mohiyatini yanada aniqlashtiradi deb hisoblaymiz.

**II.** Sud amaliyotida ko'p uchraydigan holatlardan biri ishtirokchi bir vaqtning o'zida jamiyat direktori vazifasini bajarayotgan vaqtda jamiyat manfaatlariga qarshi sodir etgan harakatlari (harakatsizligi) bo'lib, bu vaziyatda ishtirokchi aynan qaysi pozitsiyada harakatlanganligini aniqlashda qiyinchiliklar mavjudligi bois odatda, sudlar tomonidan ishtirokchini ta'sislar safidan chiqarib yuborish da'vosi ko'rilayotganda, u direktor sifatida harakatlanganligi nuqtayi nazaridan kelib chiqib da'vo talabini qanoatlantirish rad etiladi.

Ishtirokchi direktorlik vazifasini bajarayotganida manfaatdorlik bo'lishi tabiiy holat, lekin uning natijasida kelib chiqqan salbiy oqibatlar Qonunning 42-moddasiga asosan faqat yetkazilgan zararni qoplash bilan cheklanishi har doim ham yetarli emas. Mazkur holat, Ispaniya qonchiligaga ko'ra tartibga solingan bo'lib, 2010-yilgi "Kompaniyalar to'g'risida"gi Qonunning

350-moddasiga binoan ishtirokchi-direktor tomonidan direktorlik majburiyatlarining buzilishi natijasida mazkur shaxsga nisbatan zararni qoplash to'g'risidagi sud qarori mavjud bo'lsa, ishtirokchini jamiyatdan chiqarib yuborish uchun asos bo'lishi belgilangan. Demak, bu vaziyatda ishtirokchi bir vaqtning o'zida direktorlik majburiyatlarini buzishi natijasida unga nisbatan zararni qoplash to'g'risidagi hal qiluv qarorining mavjudligi, uning ta'sischi safidan sud tartibida chiqarilishi uchun asosiy mezon hisoblanishi belgilangan. Biroq, ushu normaning qonunchiligimizga to'g'ridan - to'g'ri tatbiq etish sud muhokamasining uzayishiga olib keladi. Shu sababli, ishtirokchi direktorni ta'sischi safidan chiqarib yuborish uchun derektorga nisbatan sud hal qiluv qarorining mavjud bo'lishi talabini inobatga olmagan qolda muqobil taklifni ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Albatta, sudlar mazkur toifadagi ishlarni ko'rishda umumiy qoidalardan kelib chiqqan holda, ishtirokchi tomonidan fidutsiar majburiyatlarga rioya etilganligiga hamda jamiyat faoliyatida jiddiy qiyinchiliklar kelib chiqqanligiga alohida e'tibor qaratishlari lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib biz Qonunni quyidagi norma bilan to'ldirish taklifini beramiz:

9<sup>1</sup> - modda. Ishtirokchini ta'sischi safidan majburiy tartibda chiqarish

Jamiyat ishtirokchining o'z majburiyatlarini qo'pol buzishi yoxud jamiyatning faoliyat ko'rsatishiga imkon bermaydigan yoki uni jiddiy tarzda qiyinlashtiradigan harakatlari yohud harakatsizligi shu jumladan quyidagilar ishtirokchini ta'sischi safidan majburiy tartibda chiqarish uchun asos bo'ladi.

bir vaqtning o'zida direktor vazifalarini bajarayotgan jamiyat ishtirokchisi tomonidan o'z manfaatlari yo'lida direktorlik vakolatlarini suiste'mol qilishi jamiyat faoliyatini jiddiy tarzda qiyinlashtirsa.

**III.** Ko'plab nizolar ishtirokchilarning umumiy yig'ilishlarida uzrli sabablarsiz qatnashmaganligi natijasida yuzaga kelishini yuqorida muhokama qilgan edik. Bizga ma'lumki, umumiy yig'ilishda ishtirok etish ishtirokchining boshqaruv huqularidan biri hisoblanib bir vaqtni o'zida majburiyati hamdir. Ushbu huquni bir vaqtning o'zida majburiyatlar doirasiga kiritish zarurati amaliyotda kelib chiqayotgan nizolar bilan oqlanadi. Ishtirokchining muntazam ravishda uzrli sabablarsiz umumiy yig'ilishlarda qatnashmasli agar bu harakatsizlik jamiyatni muhim iqtisodiy qarorlar qabul qilish qobiliyatidan mahrum qilsa uni ishtirokchilar safidan chiqarib yuborish to'g'risidagi da'voning qanoatlantirilishiga asos bo'lishi kerak. Agar, ishtirokchining ustav kapitalidagi ulush miqdori kam bo'lsa bu qaror qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etmasligi yani to'sqinlik qilmasligi mumkin, boshqa tomondan kun tartibida

ko'rib chiqilayotgan bazi turdagi masalalar yuzasidan qaror qabul qilinmasligi jamiyat faoliyatida salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmaydi mazkur holatlarda, ishtirokchini muntazam ravishda umumiy yig'ilishlarda qatnashmaganligi uchun uni ta'sischi safidan chiqarish adolatli bo'lmaydi. Albatta, bunday ishlarni ko'rishda sudlar tomonidan ishtirokchilarning umumiy yig'ilishini chaqirish va o'tkazish tartibiga rioya etilganligi fakti aniqlanishi kerak bo'lib, ishtirokchining umumiy yig'ilish o'tkazilishi to'g'risida xabardor qilish Qonunning 33-moddasi va jamiyat ustavida nazarda tutilgan usullarda amalga oshirilgan bo'lmasa yuqoridagi asoslar bilan ishtirokchini jamiyat ishtirokchilari safidan chiqarish mumkin emas. Sudlar tomonidan, ishtirokchining umumiy yig'ilishda ishtirok etishdan bo'yin tovlashi, jamiyat uchun katta iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan qarorni qabul qila olmaslik natijasida yuzaga keladigan oqibatlar o'rtasida sababiy bog'lanish mavjudligi aniqlanishi lozim. Ya'ni, da'vogar bunday qarorlarning iqtisodiy zarurligini va ularni qabul qilmaslik natijasida salbiy oqibatlar yuzaga kelishini yoki kompaniya faoliyatida jiddiy qiyinchiliklarga sabab bo'lganligini isbotlashi kerak. Yuqoridagilardan kelib chiqib, Qonunga quyidagi normani kiritilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

9-modda. Jamiyat ishtirokchilarining majburiyatlari.

Jamiyat ishtirokchisi:

jamiyat faoliyatiga ta'luqli muhim masalalar ko'rib chiqilayotganda ishtirokchilarning umumiy yig'ilishlarida ishtirok etish.

9<sup>1</sup> – modda. Ishtirokchini ta'sischi safidan majburiy tartibda chiqarish

Jamiyat ishtirokchining o'z majburiyatlarini qo'pol buzishi yoxud jamiyatning faoliyat ko'rsatishiga imkon bermaydigan yoki uni jiddiy tarzda qiyinlashtiradigan harakatlari yohud harakatsizligi shu jumladan quyidagilar ishtirokchini ta'sischi safidan sud tartibda chiqarish uchun asos bo'ladi:

ishtirokchilarning umumiy yig'ilishlarida muntazam ravishda uzrli sabablarsiz ishtirok etmaslik agar bu jamiyatni muhim iqtisodiy qarorlar qabul qilish qobiliyatidan mahrum qilinishi natijasida jamiyat faoliyatida salbiy oqibatlarni keltirib chiqarsa.

**IV.** Amaliyotda ishtirokchilarni ta'sischi safidan chiqarish bilan bog'liq nizolar odatda ular tomonidan ustav kapitaliga o'z hissalarini belgilangan tartibda kiritmaslik natijasida yuzaga kelmoqda. E'tiborlisi shundaki, sudlar bazi hal qiluv qarorlarida ishtirokchini jamiyatdan chiqarib yuborish ta'labini, ulush ustav kapitaliga belgilangan muddatlarda kiritilmaganligini asos qilib qanoatlantirsa yana bazi bir hal qiluv qarorlarida esa ushbu holat jamiyat faoliyatiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmaganligi uchun da'voni qanoatlantirish rad etilganligiga guvoh

bo‘lamiz. Xo‘sh bu vaziyatda, sudlar mazkur nizoga to‘g‘ri yechim berishda nimani asosiy mezon qilib olishlari kerak? Ulushning o‘z vaqtida kiritilmaganliginimi yoki buning natijasida jamiyat faoliyatida salbiy oqibatlar kelib chiqqanliginimi?

Bizning fikrimizcha, bu ikki holat birgalikda tahlil qilinishi kerak. Ya’ni ulushning belgilangan muddatda ustav kapitaliga kiritilmasli bilan jamiyat faoliyatida yuzaga kelgan salbiy oqibatlar o‘ratida sababiy bog‘lanish mavjudligini aniqlash lozim. “Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi Qonuning 9-moddasiga asosan ishtirokchi ta’ sis hujjatlarida belgilangan va jamiyat davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab bir yildan oshmaydigan muddat mobaynida jamiyatning ustav fondiga o‘z hissasini to‘liq kiritmasligi hamda Qonunning 16-moddasiga binoan jamiyatning ustav fondini ishtirokchilarining qo‘shimcha hissalarini hisobiga ko‘paytirish to‘g‘risidagi umumiy yig‘ilish qaroriga asosan hissalarini ustav kapitaliga belgilangan miqdorlarda va muddatlarda kiritmaslik jamiyat faoliyatini jiddiy qiyinlashtirgan taqdirda ishtirokchini ta’ sischilar safidan majburiy tartibda chiqarib yuborishga asos sifatida baholanishi kerak. Qonunning 9-moddasi birinchi qismi birinchi xatboshisida belgilangan “ishtirokchilarning qonunda va ta’ sis hujjatlarda nazarda tutilgan tartibda, miqdorda, usullarda va muddatlarda hissa qo‘shish” majburiyatidan kelib chiqib, quyidagi qoidani taklif etamiz:

9<sup>1</sup> – modda. Ishtirokchini ta’ sischilar safidan majburiy tartibda chiqarish

Jamiyat ishtirokchining o‘z majburiyatlarini qo‘pol buzishi yoxud jamiyatning faoliyat ko‘rsatishiga imkon bermaydigan yoki uni jiddiy tarzda qiyinlashtiradigan harakatlari yohud harakatsizligi shu jumladan quyidagi ishtirokchini ta’ sischilar safidan sud tartibida chiqarish uchun asos bo‘ladi:

ushbu Qonun 9-moddasining birinchi qismi birinchi xatboshisida belgilangan majburiyatni buzish agar jamiyat faoliyatini samarali davom etishini qiyinlashtiradigan darajada salbiy moliyaviy oqibatlarga olib kelsa.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, yuqorida tahlil qilingan xorijiy tajribalardan kelib chiqib, ishtirokchilarning o‘z hissalarini ustav kapitaliga belgilangan miqdorlarda va muddatlarda kiritmasligi, umumiy yig‘ilishlarda uzrli sabablarsiz muntazam qatnashmasli, jamiyatni o‘ziga oid o‘zgargan ma’lumotlar bilan ta’minlamasligi, ishtirokchi-direktor tomonidan o‘z manfaatlarini yo‘lida direktorlik vakolatlarini suiste’mol qilish hamda jamiyat bilan raqobatlashmaslik majburiyatlarini buzishi va boshqalar natijasida agar bu xatti-harakatlar jamiyatning normal faoliyatiga jiddiy to‘siqlar keltirib chiqarsa va salbiy moliyaviy oqibatlarga

olib kelsa ishtirokchilarning aybliligi isbotlangan holatlarda ularni ta'sischilar safidan chiqarib yuborish mumkin.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, yopiq korporatsiyalarning afzalliklari bugungi kunda ham o'z ahamiyati va dolzarbligini yo'qotmasdan ko'plab biznes egalariga kompaniya faoliyatida moslashuvchanlik, nazorat hamda maxfiylikni ta'minlab kelmoqda. Shu bilan birga, korporativ munosabatlarda mas'uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchilarining huquqlarini mulkiy, nomulkiy, hamda qo'shimcha huquqlarga ajratib o'rganish hamda ishtirokchilar huquqlarining vujudga kelish va tugash vaqtini aniqlash korporativ munosabatlarda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, ishtirokchilarning majburiyatlari asosiy va qo'shimcha majburiyatlarga ajratilganligi va o'z navbatida asosiy majburiyatlar ham asosiy shartsiz va asosiy shartli majburiyatlarga ajratilganligi bizga ishtirokchilar majburiyatlarining mazmun mohiyatini to'liq ochib berishga yordam beradi.

Ishtirokchilarni ta'sischilar safidan majburiy tartibda chiqarib yuborish masalalarida amaliyotda yuzaga kelayotgan bazi muammolarni to'g'ri hal etish uchun milliy va xorijiy normativ-huquqiy hujjatlarni va huquqiy adabiyotlarni har tomonlama chuqur tahlil qilish bizga ushbu munosabatlarni hal etishda aniq qonuniy mezonlarni ishlab chiqishga yordam beradi va mazkur izlanishlar natijasida ishlab chiqilgan qoidalar sudlar tomonidan asosli hal qiluv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyatga ega.

### **REFERENCES**

- 1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.04.2023. 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son)
- 1.2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. 21.12.1995 (28.02.2024-y., 03/24/914/0161-son)
- 1.3. O'zbekiston Respublikasining "Ma'suliyati cheklangan hamda qo'shimcha ma'suliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi 01.03.2002. 310-II-son Qonun. (22.02.2024-y., 03/24/91100/0142-son)
- 1.4. Основные положения гражданского права: постатейный комментарий к статьям.
- 1.5. С.Д.Могилевский, И.А.Самойлов.Корпорации в России: Правовой статус и основы деятельности. Учебное пособие. Дело-2006.
- 1.6. Корпоратив ҳуқуқ: ўқув қўлланма/ Б.Умаров, Х.Атажанов, 2021 йил.

- 1.7. И.Шиткина Корпоротивное право. М., 2017. С. 365. 1.29. Могилевский С.Д. Указ. соч. С. 67.
- 1.8. Научно-практический комментарий к Федеральному закону "Об обществах с ограниченной ответственностью" (том 1) (под ред. И.С. Шиткиной) ("Статут", 2021) страница 89.